




ABDULLA ORIPOV

Osmirlar
Kutubxonasi

*Onajonim
she'riyat*



◀SHARQ▶ NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT – 2004



*Orzum shul, o'chmasin yongan charog'ing,
Yulduzday nur sohsin chashming — qarog'ing,
Magar chinor bo'lsang, chinorday yasha,
Bevaqt uzilmasin biror yaprog'ing.*

ABDULLA ORIPOV

**ONAJONIM
SHE'RIYAT**

She'rlar va doston



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2004

Oripov Abdulla.

Onajonim she'riyat: She'rlar va doston. — T.: «Sharq», 2004. — 96 b.

Aziz kitobxon! Qo'lingizdagi ushbu to'plam faqatgina yangi, yoinki faqatgina eski she'rlardan iborat emas. Ayni vaqtda u tanlangan she'rlar kitobi deb ham atalmaydi. Avvalgi kitoblarga kirgan ba'zi she'rlarni ushbu to'plamga kiritishimizga sabab, yangi o'zbek imlosidagi o'quvchilarimizni hisobga olganligimizdir. Shuningdek, bu kitobda Siz ming yoshli bobomiz Abu Ali ibn Sino hayoti bilan bog'langan «Hakim va ajal» nomli dostonni ham o'qib ko'rasiz. Yosh kitobxon do'stlarimizni zarracha bo'lsa ham xushnud etish ishtiyoqida biz ushbu to'plamni tuzdik.

BBK. 84(5Y)

ONAJONIM SHE'RIYAT

Hamdam bo'lding men bilan
Har qandayin kunlarda,
Yulduz bo'lding charog'on
Eng qorong'i tunlarda,
Suhbat qurdik goh shodon,
Goho hazin unlarda,
Eng oliy baxtim mening
Onajonim she'riyat,
Topgan toj-taxtim mening
Jonajonim she'riyat.

Sen bilan baqamti to
Bu olamda yurdim men,
Turfa xil insonlarni
Ham tanidim, ko'rdim men,
Do'stlar bilan goh shodon
Davronimni surdim men.
Eng oliy baxtim mening
Onajonim she'riyat.
Topgan toj-taxtim mening
Jonajonim she'riyat.

Esingdami, azizam,
O'tdi qancha dovonlar
O'tdi qancha to'fonlar,
O'tdi qancha yovonlar,
Yaxshilikdan so'z ochdik
Goh duch kelsa yomonlar,
Eng oliy baxtim mening
Onajonim she'riyat,
Topgan toj-taxtim mening
Jonajonim she'riyat.

Hamdam bo'lib sen bilan
 «Xamsa»dan saboq oldim,
Yiroq-yiroq yulduzlar
 Sehrini dilga soldim,
Mehmon emas, qasringda
 Balki bir umr qoldim,
Eng oliy baxtim mening
 Onajonim she'riyat,
Topgan toj-taxtim mening
 Jonajonim she'riyat.

Har qismatga har kimning
 Davroni sabab bo'lgay,
She'r un cheksa shoirning
 Armoni sabab bo'lgay,
Men faxr etsam umrimning
 Har oni sabab bo'lgay,
Eng oliy baxtim mening
 Onajonim she'riyat,
Topgan toj-taxtim mening
 Jonajonim she'riyat.

Garchi mushkul ko'p bo'ldi
 Mo'jaz mening muhitda
Zuhur etdim barchasin
 Hasratli bir sukutda,
Haq yo'lin topdim lekin
 Sen bilan yongan o'tda,
Eng oliy baxtim mening
 Onajonim she'riyat,
Topgan toj-taxtim mening
 Jonajonim she'riyat.

Angladimki, olamda
 Yurt tanho, Vatan tanho,
Band etgan xayolimni
 Tengsiz shul chaman tanho,
Nokaslar emas, yo'q, yo'q,
 Yolg'iz sen baland, tanho,

Eng oliy baxtim mening
Onajonim she'riyat,
Topgan toj-taxtim mening
Jonajonim she'riyat.

Umid yorkim, yetgaymiz
Sen birlan yiroqlarga,
Maqsudim yoqib turgan
U nurli chiroqlarga,
Duch kelmasak bas endi
Turfa xil firoqlarga,
Eng oliy baxtim mening
Onajonim she'riyat,
Topgan toj-taxtim mening
Jonajonim she'riyat.

Haq senga murod o'lsin,
Shavkatning na zar, tillo,
Haq deganning umri ham
Haq kabi uzun, illo,
Boshin eggay hamisha
Ostonangda Abdullo,
Eng oliy baxtim mening
Onajonim she'riyat,
Topgan toj-taxtim mening
Jonajonim she'riyat.



UCHINCHI ODAM

Insonlar bir-birin yursa ardoqlab
O'rtada vosita asli ziyoda.
Har ikki odamni turguvchi bog'lab
Uchinchi odam bor lekin dunyoda.

Uchinchi odam bu — o'zi bir xilqat,
O'shadir dunyoga ilk qo'ygan qadam.
Ikkovlon o'ljani keltirgan fursat
O'choqqa o't yoqqan Uchinchi odam.

Payg'ambar shaklida u sohib qutqu
Bandaga tangrini dalolat etgan.
Ne o'jar shohlardan elchi bo'lib u
Goho bosh keltirgan, goh boshi ketgan.

Muhabbat bobida u-ku bir mahram,
Uningsiz visol ham yo'qdir aslida.
Shoirning yor uchun bitgan satrin ham
Yod olgan o'shadir — she'rxon shaklida.

Uning bir unvoni hakamdir azal,
Shunchalar muhtaram uchinchi bu zot.
Toki bu dunyoda mehr notugal,
Men faqat o'shandan qo'rqaman, hayhot!

Axir u emasmi do'stni g'animu
G'animni do'st qilib qo'yguvchi odam.
Magar u beshafqat boshlasa g'ulu
Dunyoga g'avg'olar solgay chinakam.

Ro'yonl rost desa, mittini kabir,
Janubni Sharq desa, aylab imolar.
Kufarli dunyoda oz emas, axir,
O'shaning izmidan yurgan siymolar.

Uchinchi bu odam tirikdir toki
Dunyoning chayqalib turmog'i ayon.
Serg'alva asrda bu zot hattoki
Saltanat shaklida bo'lur namoyon.

Olamda, aslida bordir do'st va yov!
Orzum shul: pokiza ko'rsam vijdonni.
Kimsaning nomidan kimsaga birov
Sotib yubormasa, deyman, imonni.

Qo'llarim ko'ksimda, betinch, betoqat,
Ta'zimlar qilurman senga ushbu dam.
U — menmi, U — senmi, kim bo'lma, faqat
Senga insof bersin Uchinchi odam!

DO'STLARIMGA AYTGANIM

A'loxon akaga

Dunyoda ko'p narsa unutiladi:
Qashshoqlik, martaba, quvonch, qayg'ular.
Unutilib borar muhabbat dardi,
Unutilar yillar, yo'llar, tuyg'ular.

Qirq yillik adovat unutilar sekin,
Unutilar hatto yurakdagi darz.
Yaxshilarning mehri unutilmas lekin,
Unutilmas ular oldidagi qarz.

KARVON

Ustoz Mirtemir xotirasiga

Jindakkina nozik fe'lingiz bilan
Sokin bir qo'ng'iroq chalib o'tdingiz.
Yorug'lik kunlarni bedor kutdingiz,
Dardlashdingiz faqat elingiz bilan.

Nechog'li xokisor edingiz, ustoz,
Yalangto'sh, mehnatkash, qalam dehqoni.
Qadim Turkistonning tanti o'g'loni,
Pokiza edingiz misli oq qog'oz.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/4288> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ
версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/4288>
сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную
версию можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/4288>